



MILLIY TASVIRIY VA MUSIQA SAN'ATI INTYEGRASIYASI VOSITASIDA TALABALARNING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Muallif: Baymetov Botir Boltabayevich ¹ Giyasova Nilufar Barotbayevna ²

Affilyatsiya: Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti, “Tasviriy san'at va dizayn” kafedrası professori ¹, Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti, Tasviriy san'at yunalishi 1-kurs magistranti ²

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14504741>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada talabalarga tasviriy san'atda milliy musiqa an'alarini aks ettirishga o'rgatish, yosh ijodkorlarda estetik qadiryatlarni tarbiyalash, ohang va ritm orqali insonlarni ruhlantiruvchi, quvvatlantiruvchi tuyg'ularini ikki san'at turi uyg'unligida bir butun ijodiy obrazni hosil qilishni hamda badiiy obraz yaratish sohasi bo'yicha maxsus qobiliyatlarni rivojlantirish masalalariga qaratilgan.

Kalit so'zlar: badiiy ijod, badiiy tafakkur, ijodiy hamkorlik, madaniy meros an'analari, badiiy obraz.

So'ngi yillarda mamlakatda ta'lim - tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakillantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda tasviriy san'at va milliy musiqa o'rtasidagi aloqalarni saqlab qolish va rivojlantirish milliy madaniyatni kelajak avlodga yetkazish katta ahamiyatga ega. Tasviriy san'at va milliy musiqa xalqning boy madaniy merosi va san'at an'alarining ifodasi bo'lib, bu ikkisi inson ruhiyatiga alohida ta'sir ko'rsatadigan va estetik siklga kiruvchi yunalishlar sifatida qadirlanadi.

Ko'plab o'zbek rassomlari asarlarida milliy cholg'u asboblari – doira, dutor, nay, rubob va qo'shiqlarning obrazlarini yaratib, milliy ruhni tasviriy san'atda ifoda etadilar. Xususan, o'zbek xalqining madaniy merosida ahamiyatga ega bo'lgan "Navro'z" va "Maqom" kabi musiqiy yo'nalishlar, rassomlarning ijodiy ilhomi uchun boy manba hisoblanadi. Bu motivlar rangtasvir, haykaltaroshlik va grafik asarlarda xalqning qadimiy tarixini yoritish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Aynan shunday rassomlarimizdan biri Chingiz Ahmarov o'zbek tasviriy san'atining milliy o'ziga hosligi borasida xalqning boy va guzal badiiy merosining ilg'or an'alarini hozirgi zamon san'atiga ijodiy singdirishga faol xizmat qildi. Chingiz ahmarovni mahobatli rangtasvir ustasi sifatidagi ijodining ilk yorqin sahifasini uning Toshkentdagi Alisher Navoiy nomli opera va balet teatori fayesi devorlariga ishlagan devoriy rasimlarida ko'rish mumkin. Uch qatlamli surat, xususan “Buxorocha raqs”ni chizishga

rassom 1971-yilda endi allaqachon e'tirof etilgan rangtasvirchi sifatida kirishadi. O'sha kezlari uni butun sobiq ittifoqda tanishar edi – u Moskva, Qozon va Krasnoyarskdagi ko'plab jamoaviy va shaxsiy ko'rgazmalar, mahobatli devoriy rasmlar muallifi edi. San'atshunoslar Ahmarov ijodiga xos Sharq va G'arbni uyg'unlashtira oluvchi noyob iste'dodiga yuqori baho beradilar.



1-rasm. Chingiz Ahmarovning an'anaviy o'zbek raqslari – Xorazm, -Farg'ona va buxorocha raqslari

Yorqin akademik mahorat sohibi o'laroq u sharqona an'ana va miniatyuralarga nisbatan yuksak fahm-farosat va mehr-muhabbat bilan yo'g'rilgan o'ziga xos betakror uslubni yaratib ulgurgan edi. "Buxorocho raqs" da nigohlari poyabzal tasmalariga qadalib turgan, qo'llari to'liqinsimon mavjlarni ifodalab, o'ng oyoq nazokatli tarzda yon tarafga ko'tarilgan hurliqo raqqosa tasvirlangan. Buxoroliklarning raqslaridan xuddi xorazmcha singari shijoat va zavq ufurib turadi, ammo ijrochilarning xatti-harakatlari tamomila o'zgachadir. Bu yerda raqsdagi anvoyi shakllarning nafis xumor harakatlar bilan ajib qorishmasini ilg'ash mumkin: keskin silkinish mutanosib tebranish yoki ohista aylanishlar bilan almashadi. Buxorocho raqsning o'ziga xos xususiyatlaridan biri gavdaning yuqori qismlari: kaftlar, yelka, bo'yin va ko'ksiga urg'u berilishidir. Shuningdek, u harakatlarning epchilligi, turfa serkarashma bukilish, aylanishlar, tik, o'tirgan holatda gavdani orqaga to'liq, yassi tashlab, barmoqlarni qarsillatib va boshqa uslubdagi ijrolari bilan ajralib turadi. Asar bosh qahramonining aynan shu o'zgacha tarovatini Chingiz Ahmarov o'z triptixining yakuniy qismi "Buxorocho raqs" da mohirona aks ettirgan (1-rasm).

Bundan tashqari, musiqiy asarlarning hissiy jihatlari tasviriy san'atda o'ziga xos badiiy yondashuvni talab etadi. Tasviriy san'atda ranglar va chiziqlar ohanglar kabi o'zgarib, ritmni aks ettirish, tuyg'ularni rang va shakl vositasida jonlantirish imkonini beradi. Masalan, maqomlar o'zlarining turli hil lad va shaxobchalari bilan rang-tasvir asarlarida boy ranglarning uyg'unligi, ichki dinamika va garmoniyani ifodalashga imkon beradi. Shu tarzda, rassomlar musiqiy tuyg'ularni badiiy obrazlarda gavdalantirish orqali milliy an'analar va qadriyatlarni ham ifoda etadilar.

Bugungi kunda tasviriy san'at va milliy musiqaning ijodiy hamkorligi davom etmoqda va turli loyihalar orqali xalqlar o'rtasida madaniy almashinuvga xizmat qilmoqda. Shu o'rinda milliy an'analarni zamonaviy badiiy shakllar bilan uyg'unlashtirish san'atning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Milliy musiqa orqali tasviriy san'at yangi

rang-baranglikka ega bo'lib, yosh rassomlar va musiqachilar o'rtasida ijodiy ko'priklar qurilmoqda.

Tasviriy san'at – bu ranglar, shakllar va chiziqlar orqali tuyg'ularni, voqealarni va xalq an'analarini ifodalash san'ati. Musiqa esa tovushlar, ohang va ritmlar orqali insonni ruhlantiruvchi, quvatlantiruvchi va to'lqinlantiruvchi san'at turidir. Milliy musiqa milliylikni, xalqning tarixini, an'analarini va qadriyatlarini ifodalab keladi. Tasviriy san'atda musiqaning rang-barang ohanglarini, chuqur tuyg'ularini va mazmunini aks ettirish orqali ikki san'at turi uyg'unlikda bir butun ijodiy obrazni hosil qiladi.

Talabalarga milliy ruhdagi tasviriy san'at asarini yaratishga o'rgatish bosqichlari qadamlarni o'z ichiga oladi:

Kirib kelish va ruhiyat yaratish - O'quvchilarni milliy san'atga jalb qilish uchun avvalo ularni milliy musiqa bilan tanishtirish zarur. Mashg'ulot boshlanishida milliy musiqani tinglash orqali ruhiy tayyorgarlik yaratiladi. Bu musiqaning ritmi va ohangi ularning ijodiy fikrlashini rag'batlantiradi.

Milliy musiqaga asoslangan obrazlarni tahlil qilish - O'quvchilarga milliy musiqaning asosiy mazmuni, ritmi va ohangidan kelib chiqib, tasviriy obrazlarni tahlil qilishga imkon berish. Masalan, musiqada ifodalangan milliy timsollar, madaniy elementlar, urf-odatlar obrazlari orqali asar yaratishni o'rganish.

Kompozitsiya tuzish va rang tanlashni o'rgatish - Talabalarga milliy musiqaning ohangidan kelib chiqib, kompozitsiyani tuzish, rang tanlash va tasvirning umumiy tuzilishini yaratish bo'yicha ko'nikmalarni o'rgatish. Ranglar tanlashda milliy ruhni aks ettiruvchi, an'anaviy ranglardan foydalanishni tavsiya qilish muhim.

Amaliy ijodiy jarayon - Talabalar o'zlarining obrazlarini yaratish jarayonida milliy musiqani tinglab, tasviriy san'at asarlarini chizishni boshlaydilar. Bu jarayonda ularning hissiyotlari musiqaning ta'siri ostida bo'lib, ijodiy asar yaratish davomida musiqaning o'rnini haqida tushunchaga ega bo'lishadi.

Asarlarni tahlil qilish va tanqidiy fikrlash - Talabalar tomonidan yaratilgan asarlarni tahlil qilish, milliy musiqa va tasviriy san'at uyg'unligini baholash. Ularning tanqidiy fikrlash va o'z asarlariga mustaqil baho berish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun tahliliy bahs va muhokama o'tkaziladi.

Xulosa va yakuniy baho - Ushbu bosqichda talabalar o'zlarining asarlarida milliy ruhiyatni qay darajada aks ettira olishganini tahlil qiladilar. Ularning ijodiy ishi va milliy musiqaga asoslangan san'at asarlarini yaratish jarayoni bo'yicha o'qituvchilar tomonidan yakuniy baho beriladi. Shu tariqa, milliy musiqa va tasviriy san'at uyg'unligi orqali ularning ijodiy imkoniyatlari rivojlantiriladi.

Bu bosqichlar orqali talabalar milliy madaniyat va san'atning muhim jihatlarini o'z asarlarida ifodalashni o'rganadilar, shuningdek, ijodiy jarayonda milliy musiqaning ruhiy ta'sirini his qilish ko'nikmasini rivojlantiradilar. Tasviriy san'at va musiqaning ijodiy hamkorligida yaratilgan asarlar turli tarixiy davrlarda va ijodiy sohalarida paydo bo'lgan. Bu usulga muvofiq, rassomlar musiqa ruhiyatidan ilhom olib, uni o'z asarlarida aks ettirishgan, ba'zan esa musiqiy janrlarning ritmlari, ohanglari va mavzularini tasviriy san'at orqali ifodalashgan. Masalan, Vasiliy Kandinskiy musiqaning hissiy va ruhiy ta'sirini o'z asarlarida aks ettirib, uni "Kompozitsiyalar" turkumidagi ishlari orqali ifodalagan. Bu asarlarida u rasmni musiqadagi kabi hissiy kechinmalar bilan boyitishga uringan va buni, jumladan, "Kompozitsiya VIII" asarida muvaffaqiyatli amalga oshirgan. (2-rasm)



2-rasm. Vasiliy Kandinskiy “Kompozitsiya VIII” asari.

Ozbek milliy musiqasi va tasviriy san’ati asrlar davomida uzaro ta’sir ko’rsatib kelgan. Musiqiy kuylar xalq hayotining turli jihatlarini hissiyotlarini va falsafiy mazmunlarini aks ettirgan bo’lsa, tasviriy san’at musiqaning ushbu obrazlarini o’sha davr turmush tarzi va an’analarini rasmlar, minyatyuralar va naqqoshlik asarlari orqali tasvirlab kelgan. Ayniqsa minyaturalarda ko’ylak, raqs va musiqa asboblarini ijro etish sahnalari mufassil aks ettirilgan.

Maqomlar o’zbek milliy mo’siqaning yuqori san’at namunalari sifatida tasviriy san’atda ham o’z aksini topgan. Shashmaqom va boshqa maqomlarning ijrosi jumladan uning hissiy va ruhiy jihatlari ko’pincha minyatyuralarda va xalq san’atida tasvirlanadi. Buyuk rassomlar maqomlarning har bir kuyi ortidagi ma’noni tushunishga harakat qilgan, ijrochilar va atrof muhitni, masalan, tabiat yoki an’anaviy qasr interyerini yoritib berish orqali musiqaning chuqur mazmunini ko’rsatishga uringanlar. Malumki o’rta asr Sharq mamlakatlarida tasviriy san’at sohasida uyg’onish ruy berdi. Ayniqsa tasviriy san’atning mujazrangtasvir yani minyatura deb nomlanuvchi turi kitob grafikasi bilan bog’liq holda keng rivoj topdi. Natijada arab (Bag’dod) Eron (Tabriz) Isfaxon, Sheroz, Turk, Muvoraounahr, Xindiston, Ozarbayjon, Hirot, Buxoro, Samarqand, mujaz rangtasvir maktablari paydo bo’ldi. Bu maktablarning boshida mirak Naqqosh, Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Ustod Gung, Abdulloh ibn Fazil, Ota Mirok, Kesu, Ustod Shamsiddin, Abdul Boqi Tabriziy kabi bir qator rassomlar turar edi. Hirot mujaz rangtasvir maktabi vakillari Saddiyning “Guliston” Navoiyning “Xamsa” Firdavsiyning “Shoxnoma” asarlariga ishlangan rasmlar o’rin olgan.

Talabalarni tasviriy san’at va milliy musiqani integratsiya qilish orqali o’qitish o’ziga xos ta’lim usulini talab qiladi. Ushbu usul talabalarni san’at va musiqa orqali milliy madaniyatni chuqurroq tushunishga, ijodiy va tahliliy tafakkurni rivojlantirishga imkon beradi.

Boshlang’ich tayyorgarlik va ruhiy tayanch -Milliy madaniyatga kirish: Talabalarga dastlab milliy madaniyat, an’ana va tarix haqida umumiy ma’lumot beriladi. Bu bosqichda milliy musiqaning tarixi, asboblari va janrlari haqida tushuntirish talabalarda musiqa va san’at o’rtasidagi bog’liqlikni tushunish uchun asos bo’ladi.

Vizual va eshitish hissiyotini uyg’otish: Talabalar milliy musiqani tinglab, shu musiqa asosida tasviriy san’at orqali fikrlarini ifodalashga yo’naltiriladi. Bu orqali ularda ijodiy tasavvurni rivojlantirishga asos solinadi.

Tasviriy san’at va milliy musiqaning o’zaro ta’sirini o’rgatish Musiqiy obrazlardan ilhomlanish: O’qituvchi talabalar bilan milliy musiqaning ohanglari, ritmi va mazmuni

orqali tasviriy san'atda yangi obrazlar yaratish usullarini o'rganadi. Masalan, milliy kuylar, doston va xalq kuylarini tinglab, ularning obrazlarini qog'ozga tushirishga undash mumkin.

Rang va shakllarni musiqa bog'lash:- Talabalarga musiqa tinglash orqali turli rang va shakllarni ifodalashni o'rgatish san'at va musiqani integratsiya qilishda muhim ahamiyatga ega. Har bir musiqiy asarning ohangiga mos ravishda rang va shaklni tanlash talabaning ijodiy qarashlarini kengaytiradi.

Ijodiy topshiriqlar va loyiha asosida o'rgatish:-Amaliy mashg'ulotlar: Talabalar o'zlari eshitgan musiqiy asarlarga asoslanib, milliy ruhdagi tasviriy asarlar yaratishadi. Ular, masalan, doston yoki qo'shiqlar asosida rang va shakllarni uyg'unlashtirish orqali o'z asarlarida milliy ruhiyatni aks ettiradilar.

Loyihalarni taqdim etish:- Loyihalar tayyorlash va ularni taqdim etish orqali talabalar o'z asarlaridagi musiqiy va tasviriy san'at uyg'unligini sinf oldida baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu bosqichda ularning ijodiy va muloqot qobiliyatlari rivojlanadi.

Talabalarning ishlari bo'yicha tahlil qilish: Har bir talaba tomonidan yaratilgan asarni tahlil qilish va baholash jarayonida o'z asarlarining kuchli va zaif tomonlarini tushunishga imkon beradi. O'qituvchi va boshqa talabalar bilan fikr almashish orqali talabalarning o'ziga ishonchi va ijodiy bilimlari mustahkamlanadi.

Tasviriy san'at va milliy musiqaning ijodiy hamkorligi talabalarda milliy madaniyat va qadriyatlarni chuqurroq anglashga, ularga bo'lgan hurmatni oshirishga xizmat qiladi. Ushbu uslubiy yondashuv orqali talabalar o'z asarlarida milliy ruhiyatni aks ettirishga va mustaqil ijod qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga o'rganadilar. Musiqa va tasviriy san'atning uyg'unlashishi ularga rang va shaklni, shuningdek, musiqaning hissiy tuyg'ularini san'at asarlarida aks ettirishda yordam beradi. Bunday mashg'ulotlar davomida talabalar faqat texnik ko'nikmalarni emas, balki ijodiy tafakkur, tanqidiy qarash va o'z asarlariga mas'uliyat bilan yondashishni ham o'rganadilar. Natijada, tasviriy san'at va milliy musiqani uyg'unlashtirish asosida o'rgatish talabalarning milliy ruhdagi ijodiy rivojlanishini ta'minlashda samarali vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Rahim Hasanov "Tasviriy san'at asoslari" G'ofur G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi Toshkent-2009 yil.

I.A.Akbarov "Musiqa lug'ati" G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashiruoti 1987-yil.

N.Abdullayev "San'at tarixi" 1-tom 1986-yil.

Art.blok.uz Chingiz Ahmarovning 105 yilligiga "Navoiydan kuch olgan musavvir"
GMI O'z. Ru.wikipedia.org